

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarda.....	17
<b>B.Q.Qurbanova</b>	
Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar ....	22
<b>S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov</b>	
O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni .....	27
<b>G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova</b>	
Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
<b>Sh.A.Ro'zaliyev</b>	
Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishslash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari .....	40
<b>A.R.Abdullayeva</b>	
Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili .....	43
<b>N.U.Alijonov</b>	
Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
<b>M.Y.Atadjanov</b>	
Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili .....	54
<b>N.N.Ahmadjonov</b>	
Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
<b>M.A.Djalalova</b>	
Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili .....	65
<b>N.A.Ergasheva</b>	
Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
<b>Sh.K.Mamajonova</b>	
O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish .....	73
<b>D.M.Mo'minov</b>	
Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish .....	81
<b>D.M.Nuralieva</b>	
O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	87
<b>R.S.Nuriddinov</b>	
Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
<b>M.J.Rajabov</b>	
Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili .....	96
<b>F.S.Soliyev</b>	
Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari.....	100
<b>Sh.A.Usmonov</b>	
Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli .....	106
<b>M.B.Yuldasheva</b>	
Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari .....	111
<b>G.S.Yunusova</b>	
O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili .....	116
<b>M.S.Zakirova</b>	
Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni .....	121
<b>H.A.G'anieva</b>	
Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
<b>Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов</b>	
Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA .....	134



УО'К: 152.22

**OILADA BOLANING O'ZINI ANGLASHIDA OTA-ONA SHAXSINING ROLI****РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В САМОСОЗНАНИИ РЕБЕНКА В СЕМЬЕ.****THE ROLE OF PARENTS IN THE CHILD'S SELF-AWARENESS IN THE FAMILY****Usmonov Sherzod Axmadjonovich** 

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Psixologiya kafedrasi mudiri

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada oilada kichik muktab yoshdagagi o'quvchilarni o'z-o'zini anglashida ota-onanining o'rni qay darajada yekanligi o'tkazilgan tadqiqot sinov ishlari asosida yoritib berilgan. Unda hissiy yaqinlik, oilaviy munosabat chegarasi, qarorlar qabul qilish, oilaviy rollar, oiladagi qoidalar, oilaviy uyushganlik shkalalari tahlili bilan atroficha yoritib berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье на основе исследовательских тестов освещена роль родителей в самосознании детей младшего школьного возраста в семье. Он охватывает эмоциональную близость, границы семейных отношений, принятие решений, семейные роли, семейные правила и масштабы семейной организации.*

**Abstract**

*In this article, the role of parents in the self-awareness of children of primary school age in the family is highlighted on the basis of research tests. It covers emotional intimacy, boundaries of family relationships, decision-making, family roles, family rules, and family organization scales.*

**Kalit so'zlar:** Giperprotektsiya, o'ta kuchli axloqiy mas'uliyat, emotsional raddiya, qattiqqo'llik, oilaviy tarbiya, ota-onalar munosabati

**Ключевые слова:** Гиперопека, крайняя моральная ответственность, эмоциональное отрицание, строгость, семейное воспитание, родительское отношение

**Key words:** Hyperprotection, extreme moral responsibility, emotional denial, strictness, family upbringing, parental attitude

**KIRISH**

Mamlakatimiz ijtimoiy-demografik holating muhim xususiyatlardan biri bu oila tizimidir. Oila bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan birdir. Respublikada mavjud oilalar soni bugungi kunda 5 milliondan ziyod bo'lib, ularning aksariyati bo'linmagan, ko'p avlodli, turli avlod vakillari birga yashaydigan va birga xo'jalik yuritadigan xonadonlardir. Oilaning bunday o'zimizga xos bo'lgan shakli bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy ma'naviy qadriyatlardan, an'analardan bahramand qilish, shu bilan birga milliy an'analaramizning saqlanishi, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratdi. Xuddi ana shunday oilalarda odamlar bolalik chog'laridanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim egallahsha intilishni, tug'ilib o'sgan yurti, qishlog'i, shahri, yaxlit Vatanini sevishni o'rganadilar.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy istiqboliga bevosita aloqador ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – O'zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida jamiyatning negizi hisoblangan oilalar borasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi, yo'nalishlari va tamoyillarini belgilash orqali oilaga yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'nnaviy-mafkuraviy, iqtisodiy faoliyatning dasturini va oila institutini milliy va umuminsoniy qadriyatlар muvofiqligida mustaqhkamlashning ilmiy asoslangan strategiyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Oilaga doir bunday muammolarni o'rganish, ilmiy tadqiq qilish o'ta dolzarb xisoblanadi. Ayniqsa, muammolar yechimini topishda yurtimizdagи demografik vaziyat bilan bog'liq holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki mustaqillik yillardagi mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarida oila taraqqiyotining barcha jabhalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda va o'z-o'zidan

## PEDAGOGIKA

yangicha demografik vaziyat yuzaga kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Respublikadagi alohida demografik vaziyat o'z ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanlab olish zarurligini belgilab beruvchi g'oyat muhim xususiyatlardan biridir".

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamizda mazkur yo'nalishga aloqador ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, E.G'.G'oziev, B.R.Qodirov, Sh.R.Barofov, Z.T.Nishonova va boshqalarning tadqiqotlari shaxsnинг ijtimoiylashuviga bo'yicha izlanishlar olib borgan.

Giperproteksiya – ota-onanidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko'rko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilish; bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar. Bolasi uchun "jonini jabborga beruvchilar" odatda o'zları bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo'q, ko'pchilikning ichida o'zini tuta olmaydigan, hayotning pastbalandliklarida o'zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo'lib qoladi. Ayniqsa, bola o'smirlik yoshiga yetganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo'lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo'lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-onan surriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini royobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola ko'p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi.

G'amho'rlikdan ustun keladigan giperproteksiya – bunda erkalatishdan ko'ra ota-onanidan bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta'qilalar, chegaralashlar ("u mumkin emas", "bu mumkin emas" qabilida) bisyor bo'ladi. Bunday sharoitda katta bo'lgan bola odatda mustaqil fikrli, mustaqil qarorlar chiqaruvchi bo'lolmaydi, lekin salga jahli chiqadigan, ko'p narsalardan norozi holda katta bo'ladi, chunki u doimiy nazoratga, birovlarning hamma yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib, aytib berishlariga o'rganib qoladi: onasisiz dars tayyorlay olmaydigan, otasisiz ko'chaga chiqmaydigan bo'ladi, barcha ishlarida kattalarning aralashuviga ko'nikib ketadi.

O'ta kuchli axloqiy mas'uliyat – bunda ota-onanidan bolaga nisbatan talablar darajasi yuqori bo'ladi, lekin uning asl xohish-istiklari, ehtiyojlar unchalik e'tiborga olimmaydi. Ota-onan bolasining kelajagini puxta qilishni o'ylab, uning yurishturishi uchun o'zlarini mas'ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, to'shiriqlar ham berilaveradi. Masalan, "sen to'ng'ichimizsan, ukalaringga sen qarashing kerak", degan ma'noda unga oiladagi kichik a'zolarga yoki kasallikka chalingan oila a'zosini parvarish qilish kabi mas'uliyatlari og'ir ishlar ham yuklanadi.

Emotsional raddiya – bunda ota-onan bolasini shunday tarbiyalaydiki, uning otaona hayotida u o'ziga yarasha tashvish, ortiqcha yuk ekanligi, u bo'limganida otaonaning hayoti boshqachi bo'lishi muntazam ravishda eslatib turiladi. Agar bu farzand oilada yagona bo'lmasa, boshqa arzandaroq, suyukliroq inson bo'lsa, vaziyat yanada og'irlashadi, "sen bo'limganingda..." yoki qiz bolaga qarab: "Sening o'rningda og'il bo'lganda edi..." qabilidagi kesatiqlar tez-tez aytib turiladi.

Ayrim ota-onalar bu kabi emotsiyonal jihatdan bolasini rad etayotganligini yashirishga urinadi, "nega bolani yoqtirmaysan?" kabi savollarga aslida uni sevishi, kerakligini ta'kidlagan bilan baribir bola ota-onasi uchun ortiqcha tashvish ekanligini his qilib yashaydi va tezroq mustaqil bo'lib olib, ularni tashlab ketishni, alohida yashashni ixtiyor qilib qoladi. Ona qanchalik o'z mehribonligini sun'iy ravishda namoyon etishga urinmasin, bola baribir ularning samimiy emasligini qalbi bilan his etadi. Ayniqsa, otasi bilan ajralishgan yoki ota tashlab ketgan holatlarda onaning bunday munosabati bolaga juda og'ir botadi.

Qattiqqo'llik – bir qarashda emotsiyonal rad etishga o'xshaydi, lekin undan ochiqroq va og'irroqdir. Qattiqqo'llik to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to'la befarqliq, uning boryo'qligini goyoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola yoshligidan nima qilib bo'lsa-da, tezroq katta bo'lish, o'zi amallab tirikchilagini qilish, ota-onan tazyiqidan qutulishni o'ylab yashaydi. Bunday oilada bolani u yoki bu xulqi uchun jazolash odat tusiga kirib qoladi, bola qo'rqqanidan ota-onan

hukmiga itoat etayotganligi, buning istiqbolda yomon asoratlari borligini kattalar bilmaydilar, bilsalar ham bu usul ular uchun samarali tuyuladi. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar bola xulqatvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o'rganib boradi.

Z.Freyd nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir obyektdan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib o'sadi. Jismoniy jihatdan bolaga zug'um qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vakillariga xosdir. Hayotda, ish-faoliyatida omadi kelmagan yoki baxtsiz muhabbat qurbanbi bo'lган, lekin farzand ko'rgan ayollarning aksariyati achchig'ini bolasidan olishga moyillik tarkib topadi, bu tobora hayotiy ko'nigmaga aylanib boradi. Ayniqsa, stress omillar ta'sirida ota-onalarning (masalan, ishsizlar, uyi yo'qlar, ish qidirib boshqa yerkarta ketib qolgan migrantlar, etnik yoki moliyaviy ziddiyatlarning qurbanlari, kambag'allar) o'z ijtimoiy muammolarini hal qilaolmay, tug'ilgan bolasidan o'ch ola boshlaydi.

Turmushdagi muammolar qanchalik ota yoki ona uchun murakkab tuyulsa, ularning bolasini kaltaklashi, undan o'ch olish ehtimoli shuncha yuqori bo'llishini olimlar o'rganishgan. Shunisi xarakterlikni, bolasini tez-tez do'pposlardigan ota-onalarning holatlarga unga qattiqqo'lliklarining sababini aytib, bu kabi harakatlarni nima uchun, nima sababdan amalga oshirayotganligini tushuntirishga ham jazm qiladi, bolani ularni tushunishga, hattoki, ko'mak berishga chaqiradi. Masalan, topganini o'zi ko'chada yeb, alkogolga almashtirib kelib, achchig'ini yana boladan oladi, puli asli kam ekanligini, ichmasa turolmasligini bolaga tushuntiradi. Gipoprotektsiya – shunday holatki, unda ota-onalarning bola bilan shug'ullanishga yo vaqt yetishmaydi, yoki bu ishni boshqalarga yuklab qo'yadi. Ayrim ota-onalar shu tarzda hayot kechirib, farzandlarini umuman nazorat ham qilmaydi, uning taqdiringa befarq bo'ladi, g'amho'rlik ko'rsatmaydi, bolasining kelajagiga qayg'urmaydi. Gipoprotektsiyaning yashirin shaklida ota-onalarning bola ustidan nomiga nimalardir qilganday bo'ladi. Lekin aslida ularni faqat o'zlarining kundalik muammolari qiziqtiradi. Bola bu holatlarni tahlil etib, o'zining kerak emasligini, oilada ortiqcha ekanligini anglab boradi.

Oilaviy tarbiyaning yana bir shakli – ziddiyatli tarbiya. Bunda oila a'zolarining har biri bitta bolaga nisbatan turlicha tarbiya uslublarini qo'llaydi, masalan, otasi o'ta qattiqqo'l, ona o'ta mehribon, yoki ota-onalarning xulqini juda nazorat qilib, mas'uliyat bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullanadi, buvilar esa aksincha, uni erkalatib, izdan chiqib ketishini – "hali yosh, katta bo'lganda o'zi yaxshi bo'lib ketadi", qabilida ma'qullayveradi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini E.Eydemiller, V.Yustitskiy, N.Leongardlar o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilalar shakllanishini isbotlaganlar. Ota-onalarning tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu – bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'llishlari kerak.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Biz olib borgan tadqiqot umumta'limga muktablarining boshlang'ich sinflarida o'tkazildi. Biz tadqiqotimiz davomida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zini-o'zi anglashini eksperimental o'rganishga bag'ishlangan metodikalardan Ye.I.Zaxarovaning "Ota-onalar munosabati" so'rovnomasidan foydalandik.

Dastlab, ota-onalarning o'ziga-o'zi va bolalariga munosabatlari o'rtasidagi farqlarni o'rganib chiqdik. Tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda o'z aksini topdi.

### Ota-onalarning o'ziga-o'zi va bolalariga munosabatlari o'rtasidagi farqlar

**1-jadval**

	Onaning o'zini-o'zi baholashi	Otaning o'zini-o'zi baholashi	Onaning bolasiga bahosi	Otaning bolasiga bahosi
X	6,55	6,11	8,00	7,81
$\Sigma$	2,04	1,88	1,49	1,71
T	2,84*			-0,128

Izoh: \*p<0.01

Ota-onalarning o'zini va farzandlarini baholashidagi farqlarni topish maqsadida amalga

## PEDAGOGIKA

oshirilgan miqdoriy tahlillarda keskin tafovutlanuvchi holat deyarli uchratilmadi. Onaning o'ziga bahosi 6,55 ball, otaning bahosi esa 6,11 ballni tashkil etgan bo'lib, unga ko'ra ona otaga nisbatan o'zini-o'zi baholashi yuqori yekanligini guvohi bo'ldik( $t=2,84$ ;  $p<0,01$ ). Shuningdek, onaning bolasiga bergen bahosi 8,00 ball va otaning farzandiga bergen bahosi 7,81 balni tashkil etadi. Natijalarda farqli munosabatning aks etmaganligini ota-onan o'z farzandiga munosabati orqali tarbiyaviy ta'siri, o'zining orzu-niyatlarini ko'rishga harakat qilishi, farzandiga beriladigan baho uning o'ziga beriladigan bahoning yana bir ko'rinishi ekanligi bilan izohlanadi. Ota-onaning farzandiga bergen bahosida ota-onan o'z shaxsiga bergen bahosi ("Men"iga), oilaviy muhitiga (qadriyatlariga) va faoliyat natijalari (farzandini tarbiyalashga ko'rsata olgan ta'siri)ga qaratilgan deb xulosalash mumkin. "Ota-onan – bola" munosabatlari tizimidagi baholashlarning ichki bog'lanishlarini o'rganish statistik tahsilimizda ham o'z aksini topdi (2-jadval).

**Ota-onalarning o'zini-o'zi va bolalariga munosabatlarining interkorrelyatsiyasi****2-jadval**

	<b>Ota-onalarning o'zini-o'zi baholashi va bolaning baholari</b>	<b>Onaning o'zini-o'zi baholashi</b>	<b>Otaning o'zini-o'zi baholashi</b>	<b>Onaning bolasiga bahosi</b>	<b>Otaning bolasiga bahosi</b>
1.	Onaning o'zini-o'zi baholashi	1	0,451**	0,580**	0,487**
2.	Otaning o'zini-o'zi baholashi		1	0,355**	0,362**
3.	Onaning bolasiga bahosi			1	0,368**
4.	Otaning bolasiga bahosi				1

Izoh: \* $p<0,05$ ; \*\* $p<0,01$ ; \*\*\* $p<0,001$

Ota-onalarning o'zini va farzandini baholashidagi ichki korrelyatsiya deyarli yaqqol ijobjiy bog'lanishdagi koeffitsientlarda ifodalandi. Onaning o'zini-o'zi baholashi boshqa ko'rsatkichlar bilan ( $r=0,451$ ,  $r=0,580$ ,  $r=0,487$ ;  $p<0,01$ ); otaning o'zini-o'zi baholashi ham ( $r=0,355$ ,  $r=0,362$ ,  $p<0,01$ ); onaning farzandiga bergen bahosi ham ( $r=0,580$ ,  $r=0,355$ ,  $p<0,01$ ); otaning farzandiga bergen bahosida ham (( $r=0,487$ ,  $r=0,362$ ,  $r=0,368$ ;  $p<0,01$ ) ijobjiy ichki korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi. Natijalarimiz bunday tus olishining o'ziga xos psixologik sabablari bo'lishi tabiiy, ya'ni oilaning bola ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi institut ekanligi ota-onan ta'siri orqali o'zini anglashiga, dastlabki ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishiga olib kelishi bilan bog'liq.

**XULOSA**

Inson hayotining turli jarayonlarini tushunish uchun muhimdir. O'z-o'zini anglash shaxsning ko'p jihatlari bilan bog'liq, har xil ko'rinishlarda farq qiladi, ham normal, ham patologik holatda bo'lishi mumkin. Turli olimlar ularning tarkibiy qismlari, tuzilishi, darajasi va bosqichlarini ajratib ko'rsatadilar. Ushbu hodisa inson psixikasi, ongi ustidagi uskuna bo'lib, unga ta'sir ko'rsatuvchi shaxs atrofidagi odamlarga bog'liq. O'z-o'zini anglash ontogenezda rivojlanish va shakllanishning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Garchi bu soha allaqachon etarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, hali yashirin va izlanishini kutayotgan ko'p narsalar mavjud. Ongni rivojlantirishning cho'qqisi - bu o'z-o'zini anglashdir, bu insonga nafaqat tashqi dunyoni aks ettirishga, balki bu dunyoda ajralib turgandan so'ng, uning ichki dunyosini idrok etishi, uni boshdan kechirishi va o'zi bilan ma'lum bir shaklda aloqasi bo'lishi mumkin. O'z-o'zini anglash shaxs ongini rivojlantirish jarayonida paydo bo'ladi. Ong va o'z-o'zini anglash bir-biriga bog'liq: insonning ongi darajasi qanchalik baland bo'lsa, uning o'zini anglash darajasi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Kishining tashqi olam haqidagi tushunchalarining kengayishi bilan uning o'z-o'zini anglashi kengayadi. O'z-o'zini anglash – o'z-o'zini anglash, ularning tabiatga va boshqa odamlarga munosabati, xatti-harakatlari va xatti-harakatlari, fikrlari, tajribalari va turli xil aqliy fazilatlari. Bu inson o'zini o'zi biladigan va o'zi bilan aloqador bo'lgan jarayondir. Shaxsning o'z-o'zini anglashini rivojlantirish quyidagilarda namoyon bo'ladi: o'z-o'zini kuzatish; o'ziga nisbatan tanqidiy munosabat; ularning ijobjiy va salbiy sifatlarini baholash; ularning harakatlari uchun javobgarlik. O'z-o'zini anglashning asosiy vazifasi- o'z harakatlarining motivlari va natijalarini odamga tushunarli qilish va uning aslida nima ekanligini tushunishga, o'zini baholashga imkon berish. Agar baholash qoniqarsiz bo'lib chiqsa, u holda inson o'zini o'zi takomillashtirish, o'zini o'zi rivojlantirish yoki himoya mexanizmlarini yoqish bilan shug'ullanishi mumkin, bu ichki mojaroning shikast ta'siridan qochib, ushbu noxush ma'lumotni almashtirishi mumkin. Faqatgina shaxsning individualligini anglash tufayli maxsus funksiya paydo bo'ladi - himoya qiluvchi funksiya: uning individualligini uni tekislash xavfidan himoya qilish istagi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Pedagogika oliv o'quv yurti talabalari uchun darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2008.-74-b.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Pedagogika oliv o'quv yurti talabalari uchun darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2008.-75-b
4. Социология семьи: Учебник / Под ред. Проф. А.И.Антонов.-М.: ИНФРА-М, 2005-С.220
5. Социология семьи: Учебник / Под ред. Проф. А.И.Антонов.-М.: ИНФРА-М, 2005-С.235
6. Торохтий В.С. Осноциально-психологического обеспечения социальной работы с семьей.-М.,2000.